

Бабабеков А. Д.

PhD., доцент в.б.

Ўзбекистон Миллий университети

abababekov79@gmail.com

O‘ZBEK OILASIDA YER VA SUV BILAN BOG‘LIQ EKOLOGIK TARBIYA

ANNOTATSIYA

So‘nggi yillarda jahonda ro‘y berayotgan qurg‘oqchilik va turli ekologik inqirozli muammolarning ko‘payib borayotganligi yer-suv bilan bog‘liq xalqona tajriba, bilimlarni batafsil o‘rganishni taqozo etmoqda. Insonlar tomonidan yer va suv qadim o‘tmishdan bebaho ne‘mat sifatida e‘zozlab kelingan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Beruniy o‘zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” kitobida yer va suvga bag‘ishlangan odatlar haqida ko‘p to‘xtalgan. O‘rganishlar va tahlillar davomida o‘zbeklar orasida yer va suv haqidagi turli-tuman qarashlar ahloqiy meyorlar va odatlar tarzida namoyon bo‘lishi, kundalik hayotda aholining yerdan foydalanish, suv bilan bog‘liq ravishda keng tarqalgan tushunchalari: “ona zamin”, “muqaddas tuproq”, “ona tuproq”, “ona yurt”, “ona vatan”, “tirik suv” va “o‘lik suv”, kasb va mansab (mirob, suvchi, miroboshi), dori-darmon, yorug‘lik, boylik manbai ekanligi haqida ham ma’lumotlar berildi.

Kalit so‘zlar: yer, suv, qadriyat, ekologiya, barqaror rivojlanish, etnografiya, oila, tarbiya, Avesto, islom, urf-odat, madaniyat.

Бабабеков А. Д.

PhD., и.о. доцента

Национальный университет Узбекистана

abababekov79@gmail.com

ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ, СВЯЗАННОЕ С ЗЕМЛЕЙ И ВОДОЙ В УЗБЕКСКОЙ СЕМЬЕ

АННОТАЦИЯ

Рост числа засух и различных экологических кризисных проблем в мире в последние годы требуют детального изучения опыта и знаний людей, связанных с землей и водой. Земля и вода издревле почитались человеком

как бесценные блага. Вероятно, поэтому Беруни в своей книге «Памятники минувших поколений» много рассказал об обычаях, посвященных земле и воде. В ходе исследований и анализа различные представления о земле и воде у узбеков проявляются в виде моральных норм и обычаев, распространенных представлений о землепользовании и воде в повседневной жизни: «мать-земля», «святая земля», «мать-земля», «почва», «родина-мать», «живая вода» и «мертвая вода», профессия и карьера (мироб, вода, миробоши), медицина, свет. Также была дана информация, что она является источником богатства.

Ключевые слова: Земля, вода, ценности, экология, стабильное развитие, этнография, семья, воспитание, Авеста, ислам, обычаи, культура.

Bababekov A. D.

PhD., associate professor
National university of Uzbekistan
abababekov79@gmail.com

ECOLOGICAL EDUCATION RELATED TO EARTH AND WATER IN AN UZBEK FAMILY

ABSTRACT

The increase in the number of droughts and various environmental crisis problems in the world in recent years require a detailed study of the experience and knowledge of people associated with land and water. Since ancient times, land and water have been revered by man as priceless goods. This is probably why Beruni, in his book “Monuments of Past Generations,” talked a lot about customs dedicated to land and water. In the course of research and analysis, different ideas about land and water among Uzbeks are manifested in the form of moral norms and customs, common ideas about land use and water in everyday life: “mother earth”, “holy land”, “mother earth”, “soil”, “motherland”, “living water” and “dead water”, profession and career (mirob, water, miroboshi), medicine, light. Information was also given that it is a source of wealth.

Keywords: Land, water, values, ecology, sustainable development, ethnography, family, education, Avesta, Islam, customs, culture.

KIRISH

Darhaqiqat, bugungi kunga kelib sayyoramizning ekologik holati ko'pchilik rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarni birdek tashvishga solmoqda. Atrof-muhit muhofazasi, uning tabiiy resurslaridan xususan yer va suvdan oqilona foydalanish masalalari dolzarb ekologik muammo bo'lib qolmoqda. Hozirgi ekologik inqirozning asosiy sababchisi inson bo'lib, atrof-muhitni ifloslanishdan saqlash, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish ko'p jihatdan insonlar qaysi jamiyatda yashashlaridan qat'i nazar ularning ekologik savodxonligi va madaniyatiga bog'liq bo'lib qolayotganligi hech kimga sir emas. Hozirgi paytda ko'plab shaharlar, sanoat markazlari joylashgan hududlarda ekologik vaziyat keskin yomonlashgan. Ayniqsa hududning geografik, ekologik va iqtisodiy xususiyatlarini, iqlim sharoitlarini hisobga olmagan holda, tabiat qonunlariga, jumladan atmosfera havosini muhofaza qilish qoida va talablariga zid ravishda turli xil sanoat korxonalarining qurilishi, ularning ishlab chiqarish quvvatini to'g'ri baholamaslik, texnologik jarayonlardagi nuqsonlar, shuningdek eski texnologik vositalaridan foydalanish atrof -muhitning, ayniqsa atmosfera havosining ifloslanishiga olib kelmoqda. Bularning oqibati o'laroq, dunyoda ekologik muhitning yomonlashuvi bilan bog'liq turli xil kasalliklar kelib chiqmoqda.

Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining tadqiqot natijalariga ko'ra, inson salomatligi: 20% - nasldan-naslga o'tadi; 20% - atrof-muhit ifloslanishidan; 50% - og'ir turmush sharoitidan; 10% - tibbiyot oqibatida salomatligi xavf ostida qolar ekan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasining 59-sessiyasida Barqaror taraqqiyot maqsadlari uchun ta'limni (BTT) amalga oshirish bo'yicha xalqaro sxema tasdiqlangan. BTT fanlararo yondashuvi asosida ta'lim olish, tarbiya, o'z-o'zini rivojlantirish va namoyon etish, mustaqil va tanqidiy fikrlash, ma'nan shakllangan, ijtimoiy faol, o'z xatti-harakalarida axloqiy va ekologik meyorlarga asoslanadigan, o'zbek xalqi qadriyatlariga mos bo'lgan, ekologik bilimga chanqoq, atrof-muhit holati haqida qayg'uradigan va yangi ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolarni oldindan ko'ra olish xususiyatlarini shakllantirishga da'vat etadi. BTTjamiyatning barcha a'zolarini mintaqaviy va

global muammolarni hal etish uchun zarur bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. Agar, ekologik ta'lim ko'proq ekologik mavzularga e'tibor qaratsa, BTT siyosat, iqtisodiyot, jamiyat va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik masalalariga alohida yondashadi.

Shu nuqtai nazardan O'zbekiston respublikasida so'nggi 20 yilda atrof-muhitni muhofaza qilishga oid qariyb 30 ga yaqin qonun va 350 dan ortiq meyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydigan hamda fuqarolarning maqbul atrof-muhitga bo'lgan huquqlarini kafolatlaydigan ko'plab xalqaro konvensiyalar ratifikatsiya qilindi, shartnoma va bitimlar imzolandi. Bugungi kunda nafaqat O'zbekistonda, balkim yer sharida ham ekologik muammolar dunyo aholisini xavotirga solmoqda [1, 2]. Ekologik siyosatning asoslari, tartib-koidalari, ilmiy asoslangan konsepsiyalari, taktika va strategiyalari olim va mutaxassislar tomonidan izlanishlar olib borishni taqozo etmoqda. O'zbekistonda ekologik siyosat davlat siyosati darajasigacha ko'tarilgan. Buni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50, 54, 55 va 100- moddalarida ifodalanganligida ham ko'rish mumkin.

Yer sharida yiliga 3300–3500 km³ suv sarflanib, suvga bo'lgan talab yil sayin oshib bormoqda. Bunga sabab shaharlarning kengayishi, sanoat va qishloq xo'jaligining jadal rivojlanishi, sug'oriladigan yerlarning kengayishi, aholi sonining oshib borishi va yashash sharoitlarining yaxshilanishi va boshqa omillar ta'sirida insoniyatni suv bilan ta'minlash muammosi murakkablashib bormoqda. Buning natijasida hozirgi vaqtda Yer shari aholisining to'rtidan bir qismi ichimlik suvi tanqis mamlakatlarda yashaydi. Bunday holat Afrikaning bir qator mamlakatlarida, Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo mamlakatlari (ayniqsa O'zbekiston, Qoraqalpog'iston, Turkmaniston) da, hatto rivojlangan Yevropa davlatlarida ham sezilmoqda.

Yuqoridagi salbiy holatlar, O'zbekiston Respublikasini ham chetlab o'tmagan bo'lib, ushbu muammo yildan-yilga keskinlashib bormoqda. Uning oldini olish va bartaraf etishning omillaridan biri, suv resurslaridan tejab-tergab foydalanish, ishlatilgan suvlarni qayta ishlatish va suv resurslarini muhofaza qilish tadbirlarini

takomillashtirishdan iboratdir. Bugungi kunda yer-tuproq, yer-suv tushunchalari o'zbeklar madaniyatida qanday o'rin tutadi?, nega yer-suv bilan bog'liq qadriyatlar va tabiatni asrash bilan bog'liq qarashlar, tarbiya an'analari unutilmoqda?, nima uchun yer, suvga bo'lgan munosabat yomonlashib bormoqda? Ekologik muammolarning oqibatlari va kelajakdagi yechimi qanday bo'ladi? kabi murakkab savollarga javob topish lozim bo'ladi. Shuningdek, mazkur maqolada o'zbek oilasida ekologik madaniyat, yer-suv borasidagi bilim va ko'nikmalarning shakllanishida buva-buvi, ota-onalarning vazifalari va o'rni, rolidagi ayrim o'zgarishlar, farzand tarbiyasida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni etnografik materiallar asosida tahlil etish maqsad qilingan.

Markaziy Osiyoda tabiat, yer va suv ilmi bilan bog'liq bilim, tajriba, urf-odat va qadriyatlarning vujudga kelishi tarixi o'tgan ming yillarga borib taqaladi. Yer (tuproq) butun borliq, mavjudotning onasidir. Inson va barcha mavjudotlar tuproqda paydo bo'ladi, hayot kechiradi va ibtidosi, intihosi ham zamin yer (tuproq) hisoblanadi. Keksalar tomonidan hozirga qadar ham inson yaralishining ibtidosi - ona zamin mevasi bo'lganligi sababli, yer, tuproqqa mehr bilan munosabatda bo'lishi lozimligi uqtirib kelinadi. Shu boisdan "Yer- ona, suv- ota", "Yer og'asi- xudo, suv og'asi- sulton", "Yer-suv bitmas kon", "Yer tuzi yerdan, suv xavfi yildan", "Yerni tepma- yerda insonlar yotar", "Tuproq olsang oltin bo'lsin" kabi o'zbek xalq maqollarida ham yer, tuproq e'zozlangan. Shu bilan birga yer haqida quyidagi: "Yer tutmaguncha el tutmas", "yer xazina-suv gavhar", "Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda", "yerga tushgan- gul bo'lar, uyga tushgan- kul bo'lar", "yerdan yerning farqi bor, o'ttiz ikki narxi bor", "yerdan yerning, erdan erning farqi ko'p" kabi iboralar ham o'zbeklar orasida yerni e'zozlash ma'nosidagi xalq pedagogika an'anasi shakllanganligini bilib olish mumkin. Shuningdek, xalqimizda yer bilan bog'liq qarg'ishlar ham mavjud: "Yer tortkur", "Yer tortsin", "Yer yutkur", "Ko'zi tuproq bilan to'yadi", "Ustiga tuproq tortsin". Ba'zi kishilarga nisbatan "Tuprog'i yengil", "Tuprog'i og'ir" kabi iboralar bugungi kunda ham ishlatiladi.

Mintaqa aholisi qadimdan suvni hayot ya'ni, tiriklik ramzi sifatida tushungan va unga e'tiqod qilgan. Ushbu e'tiqodlar suv bilan bog'liq "sust xotin", "suv sayli" kabi ko'plab qadimgi odatlarda o'z aksini topgan[2, 257, 33]. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, tabiatga oqilona munosabat Sharq xalqlari ekologik dunyoqarashi rivojlanish tarixidagi o'ziga xos umumiy xususiyat, unda teologik mazmun ustuvorligi bilan xarakterlanadi. Zero tabiatga mehr uyg'otishga bag'ishlangan tarbiya bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lsada, aslida tabiat unsurlaridan biri sifatida suvni asrab-avaylash dastlab ibtidoiy diniy tasavvurlar sifatida shakllangan bo'lib, bu "Avesto", "Qur'oni Karim", "Hadislar" kabi dinning muqaddas kitoblarida keltirilgan ma'lumotlar bundan yaqqol dalolat beradi. "Avesto"ning ko'pgina qasidalarida tabiatdagi bog'larni, suvlarning tozaligini saqlash, ularni ko'paytirish, tuproq, olov va boshqalarning sofliqini asrash haqida qiziqarli fikrlar aytilgan. Masalan, uning (35-42 got) o'n uchinchi bo'lim 16-bandida quyidagi fikrlar qayd etilgan: "Suvlar, zaminlar va giyohlarni olqishlaymiz. Manzillar, qishloqlar, yaylovlar, xonumon(xonadon)lar, suvloqlarni olqishlaymiz" [3, 87]. Shuningdek, bu muqaddas kitobda inson nafaqat o'zi yashayotgan tabiiy muhitga, balki undagi turli-tuman jonzotlarga ham mehr-muhabbatli bo'lishga da'vat etilgan. "Avesto"da uqtirilishicha bolalar yoshligidanoq daraxt ko'chatlarin o'tqazish shart bo'lgan. Yer, suv, havo, olovni asrash qoidalarini buzgan kishi 400 qamchi jazosiga mahkum etilgan. «Avesto»da eng muhim ekologik talab sifatida bir turdagi tabiiy obketni buzgani uchun ikkinchi turdagi tabiiy obketni to'ldirish shartligi meyor qilib olingan. Masalan, suvni iflos qilgan yoki ov itini o'ldirgan kishi 10000 ruhiyatni tetiklashtiradigan o'simlik bargi terishi, 1000 echkemar, 1000 ta suv qo'ng'izi va kasallik tarqatuvchi pashshani o'ldirib, gunohini yuvishi lozim bo'lgan. Xususan, "Avesto"da "Inson - deb ta'lim beradi Zardusht - hayvon bolasini o'z farzandlaridek tarbiyalasagina, yaylovlarni gullab-yashnashiga yordam bergan taqdirdagina, dehqonchilik va sug'orish ishlarida ishtiyoq bilan mehnat qilsagina, mehnat ma'budasi Ardovsura Anaxitaning inoyatiga noil bo'lg'usidir" [3, 45]. Bu manbada o'z davri nuqtai nazaridan, umuman Sharq, ayniqsa Markaziy Osiyo mamlakatlarida tabiiy

resurslardan oqilona foydalanish, hayvonot hamda o‘simliklar dunyosini muhofaza qilish haqida mukammal ma’lumotlar berilgan [5, 17]. Boshqacha qilib aytganda, bu keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, o‘tmish ajdodlarimiz dunyoqarashi, ijtimoiy tafakkurida ekologik ong va madaniyatning muhim jihatlari o‘sha davridayoq shakllangan. Garchi sodda, diniy xarakterda bo‘lsa-da, atrof-muhit musaffoligi, tabiat ne‘matlariga oqilona munosabatlarning davr ruhiga xos xususiyatlari uzoq davrlardayoq tarkib topa boshlagan.

Islom ta’limotida ham ekologik dunyoqarashning muammolariga, ya’ni tabiatni asrash masalasiga alohida e’tibor berilgan. Masalan, Qur’ondagi “Furqon” surasining 2- oyatida “Alloh hamma narsani yaratdi va o‘lchovini mukammal qildi” [6, 359] - deyilgan. YA’ni dunyodagi har bir narsa – suv, tuproq, havo, hayvonot olami, hamda nabotot olami ham Alloh taolo tomonidan muayyan o‘lchov bilan bir-biriga o‘zaro bog‘liq qilib yaratilgan. Agarda bu muvozanat inson tomonidan buziladigan bo‘lsa tabiat, shu jumladan, inson uchun jiddiy muammolar kelib chiqishi ehtimoli nihoyatda kattaligi va jazo muqarrarligi ta’kidlangan.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Maqola uchun materiallar sifatida Markaziy Osiyo va bugungi O‘zbekiston hududida yer, tuproq va suv ilmining vujudga kelishi hamda mintaqa hamda O‘zbekistonda yer va suvdan foydalanish an’analari (prof. A.Ashirovning maqola va asarlaridan), sug‘orish tizimlari tarixiga bag‘ishlangan asarlardan ham keng foydalanilgan. Ularga tayangan holda asrlar davomida shakllangan yer va suv tushunchalari, tabiatni asrashga oid xalqona tajriba va bilimlarning yer va suvdan oqilona foydalanishdagi ahamiyati, ekologik tarbiyaning tabiiy-tarixiy asoslari va ekologik madaniyatni oshirishdagi o‘rni yoritib berildi. Maqolada umum qabul qilingan metodlar - qiyosiy-mantiqiy tahlil, intervyu, etnografik tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Shuningdek, ota-onalar tomonidan yoshlarga ko‘proq ekologik ta’lim va tarbiya mavzularida; mahallalarda esa, ekologik-huquqiy ta’lim va tarbiya olib borayotgan oilalarning tajribalarini kengroq yoritish; ekologik siyosatning mazmun va mohiyati haqida yoshlarga kengroq tushunchalar berish; avvalombor har bir oilada huquqiy-ekologik ta’lim berish va bu ekologik

ta'limtarbiyani maktabgacha ta'lim muassasalarida, Oliy ta'lim muassasalarida uzviy davom ettirish va rivojlantirish; yoshlar o'rtasida "Etnoekologiya: ta'lim va tarbiya" maxsus kurslarini o'qitish hamda boshqa tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi aholisining hayoti, faoliyati va farovonligini asosi sifatida yer katta ahamiyatga ega bo'lib, undan nihoyatda oqilona foydalanish talab etiladi. Bizning eng asosiy vazifamiz- hozirgi va kelajak avlodlar manfaatlarini ko'zlab yerdan samarali foydalanish va uni muhofaza qilish, tuproq unumdorligini tiklash va oshirish hamda tabiiy, ekologik muhitni yanada barqarorlashtirishdan iboratdir. Shulardan eng asosiysi ona zamin, tuproq bo'lib, sabr, umid, ezgu xulq va muruvvatni shakllantiradi. Yer (tuproq) butun borliq, mavjudotning onasidir. Inson va barcha mavjudotlar tuproqda paydo bo'ladi, hayot kechiradi va ibtidosi, intihosi ham zamin yer (tuproq) hisoblanadi. Tuproq (yer) tabiatning ehsoni, ayni vaqtda turfa mo'jizalar maskani ham hisoblanadi. Tabiatning go'zalligi, el-yurt rizq-ro'zining, dasturxonining ko'rki bo'lgan non va boshqa ko'plab ozuqa mahsulotlari ana shu tuproq (yer)da yetishtiriladi. Dunyodagi barcha mavjudotlarning poklaydigan ham shu ona zamindir. Shu boisdan xalqimizda yer, tuproqni e'zozlab, "Ona zamin", "Muqaddas tuproq", "Ona tuproq", "Ona yurt", "Ona Vatan" kabi iboralar tez-tez qo'llaniladi.

O'zbek xalqi an'anaviy turmush tarzida yer (tuproq) bilan qadimiy e'tiqodlar izlari uchraydi. Bugun o'zbeklarda ba'zi ekinlar rivoji past, hosili kam bo'lsa va bu holat bir necha marta takrorlansa, bunday yerlarga odamlar salbiy munosabatda bo'lishgan. Giyoh o'smaydigan yoki kam hosilli paykallar "It tekkan yer" (ins-jins tekkan yer), "Xudo qarg'agan yer" deb atalgan [6, 141]. Xorazmda mayitning jasadi tekkan yer "nopok yer" deyilgan. Agar ekin ekiladigan yerdan odam jasadi yoki uning suyaklari topilsa, bu joy harom hisoblangan. Bunday yerlarga besh marta sug'orilgandan so'ng ekin ekilgan. Ba'zi hududlarda esa bunday yerlar atrofi jo'yak olingan, ikki-uch yil davomida sug'orilmagan va ekin ekilmagan [7, 226]. Qashqadaryo vohasida mayitni qabrga qo'yayotganda boshi ostiga o'z tomorqasi, yeri, tuprog'i, asosan ko'pincha devori kesaklari qo'yiladi. Dafn ishtirokchilari

ham tuproqqa duo o‘qilgach, yig‘ilgan tuproq qabrga mayitning yon atrofiga joylashtiriladi. Qabriston hududidagi yerlarga nisbatan “qora yer” iborasi qo‘llaniladi. Yerga nisbatan ayol jinsining berilishi va “ona yer” sifatida tasavvur qilinishi boshqa xalqlarda ham uchraydi [8, 61].

Kundalik hayotda har bir insonning yangi kuni, avvalo, suv bilan yuzlashishdan boshlanadi. Ota-onalar farzandlariga har kuni erta tongda uyg‘ongan zahoti yuz-qo‘lini suv bilan yuvishni, inson yuvinmagunicha “yuvuqsiz” holda biron kishi bilan salomlashmasligi, ko‘rishmasligi, hech kimga qaramasligi va hech qanday yumushni bajarmasligi lozimligini uqtirib boradilar. Aynan yuz-qo‘l yuvib poklangandan so‘ng oila a‘zolari bir-biriga salom berishadi.

Milliy taom iste‘mol qilish etiketiga ko‘ra, ovqatlanish oldidan va taom yeb bo‘lingach, fотиha o‘qilganidan so‘ng qo‘llar suv bilan yuviladi. Ovqat tanovul qilishni dasturxon atrofida o‘tirganlarining eng kattasi boshlab beradi, undan keyingina yoshiga qarab boshqalar taomga qo‘l uzatadi. Lekin birgina holatda, ya‘ni faqat suv ichishni yoshi ulug‘roq kishilar emas, aynan yoshlar boshlab beradilar. Bu odat xususida xalq maqoli ham bo‘lib, “Osh kattadan, suv kichikdan” deyilar. Bu o‘rinda bir savol tug‘iladi, ya‘ni nima uchun suv ichish aynan kattalardan emas, balki kichiklardan boshlanadi? Chunki tashnalik inson uchun mushkul sinovdir. Odam taom yemasdan ma‘lum muddat chidashi mumkin, lekin tanasining asosiy qismini suv tashkil etganligi sababli tashnalikka uzoq vaqt chiday olmaydi. Ayniqsa, yosh bola chanqasa, juda qiynaladi va tashnalik qancha davom etsa, uning murg‘ak vujudiga shuncha ziyon bo‘lishi mumkin. Shu sabab ham bu naqlga rioya etilishida yoshlarga bo‘lgan mehribonlik va nasl davomiyligiga bo‘lgan alohida diqqat-e‘tibor va mehr-muhabbatni ko‘rishimiz mumkin.

Oila davrasida ko‘proq buva va buvilar tomonidan nabiralar yoki ota-onalar tarafidan o‘z farzandlariga uch-to‘rt yoshidan boshlab suv – hayot davomiyligi, ya‘ni tiriklik asosi ekanligi tufayli doimiy ravishda suv va suv havzalari hisoblangan ariqlar, kanallar, daryolar tozaligi haqida qayg‘urish insonning muqaddas burchi ekanligi tarbiyaning turli vositalari asosida singdirib borilgan. Xususan, suvni isrof qilmaslik, uni bulg‘amaslik, suvga aslo tupurmaslik va

peshob qilmaslik, suvga nopok hamda iflos narsalarni tashlamaslik uqtirilib, bunday yaramas, bema'ni qiliqlarni qilish nihoyatda og'ir gunoh ekanligi milliy va diniy qarashlar asosida o'rgatilgan. Shuningdek, oqar suvga mag'zava va turli-tuman chiqindilar tashlash eng og'ir gunohlardan biri hisoblangan. Bunday yomon ishlarni bilib-bilmay qilib qo'ygan kimsalar keng jamoatchilik tomonidan doimiy ravishda qoralangan.

Jamiyatning yuragi – oila davrasida keksalar “suvdek serob bo'lg'in”, “umringning o'tayotganini bilmoqchi bo'lsang, suvga qara”, “umring suvdek uzun bo'lsin”, “o't balosi, suv balosidan Yaratganning o'zi asrasin” deb duolar qilishadi. Shuningdek, suv bilan birga hayot davomiyligi bo'lgani singari, har bir oilada er-xotin o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro vafodorlik oilaning ustuni hisoblanishi yana bir maqolda “Suvsiz hayot bo'lmas, vafosiz – oila” deb tavsiflanadi.

Oilada yoxud ma'lum bir davrada, dasturxon atrofida o'tirishganda, taomdan avval va keyin barcha o'zbeklar singari duoyi fotiha qiladilar. Odatda, kishilar dasturxon atrofida to'planar ekan, dastlab Allohga shukronalar aytadilar. Shuningdek, taomdan so'ng dasturxon boshida o'tirganlarga nisbatan yoshi eng katta kishilardan biri duo qiladi. E'tiborli jihati ham shundaki, duolar xilma-xil bo'ladi. Masalan, shulardan birini keltirib o'tsak: «Bismillahir rohmanir rohiym. Shirin novvot, manzil obod, payg'ambar, xudoga salovat. Xo'p bersin, ko'l bersin. Keng fe'l, ketmas davlat bergin. Do'stga zor, dushmanga xor, nomardga muhtoj qilmagin. O't balosi, suv balosi, nohaq tuhmatdan o'zing asragin. Omin, Allohu Akbar!» Demak, shu birgina duodan ham ko'rish mumkinki, odamlar suvni nafaqat ijobiy deb bilganlar, balki u keltiradigan falokatlarni ham eng yomon voqelik, falokatlardan biri sifatida Allohdan shu balodan saqlashini iltijo qilib so'raganlar. Xullas, suv mahalliy aholi tafakkurida dual vazifani bajargan bo'lib, suvdan azizroq, pokroq, mo'tabarroq, ayni vaqtda, undan vahimali, dahshatli va qo'rqinchliroq kuch-qudrat yo'qligini ajdodlarimiz qadim zamonlardayoq hayotda ko'rib, teran tarzda anglab yetgan edilar.

Shu bilan birgalikda, suv poklovchi vosita sifatida ishlatilishini o'zbeklar kundalik turmush tarzidagi mayitni yuvish marosimida ham ko'rishimiz mumkin.

Mayitni yuvish barcha musulmonlarda uchraydigan islomiy taomillardan biri bo'lib, suv bilan yuvish dunyoning ko'p xalqlariga xosdir [9, 262]. Tadqiqotchi olim, Muqaddas Payziyevaning yozishicha, o'likni yuvish uchun ishlatiladigan suv toza va pok bo'lishi zarur [10, 66]. Ilmiy adabiyotlarda o'likni yuvish marosimining kelib chiqishini ibtidoiy davr odamlarining suvni o'liklar va tiriklar dunyosini birlashtirib turuvchi sehrli yo'l, ko'prik, chegara degan qarashlari bilan bog'laydilar [11, 135]. Marhumni yuvish odati mayitning "nopokligi" va suvning "poklash" xususiyatlari bilan bog'liq. Mayit faqat yuvishga qadar marosimiy nopok, yuvilgandan so'ng esa u pok hisoblanadi [12, 184]. O'zbeklarda marhum yuvib bo'lingach, begonalarning nazaridan saqlash maqsadida tezda kafanlanadi va hech kimga ko'rsatilmaydi.

Erta bahorda obirahmat keltiradigan ariqlar, kanallar va zovurlarni hashar yo'li bilan tozalashda har bir xonadondan bitta erkak ishtirok etishi shart bo'lgan. Mahalliy aholi orasida yangi kanal va ariq qazishda qatnashish eng savobli ishlardan biri sanaladi. Shuningdek, O'zbekistonning barcha tumanlarida ko'klamgi ariq qazish payti birinchi suv kelgan paytda odamlar albatta bir-birlarini suvga pishib oladilar. Bunaqa suvga pishish odati qurg'oqchilik paytidagi «Sust xotin» marosimida ham o'ta keng qo'llaniladi.

O'zbeklarda biron-bir yaxshi niyat bilan duo qilingan chog'da keksalar: «Suvdek serob bo'lg'in» -deyishsa, sport musobaqalarida "Yelkang yer ko'rmasin" – deya dalda berishadi. Shu o'rinda, avvalo, yer va suvning odamlar tasavvurida bitmas-tuganmas boylik (rizq) deb hisoblanganligi, boshqa tarafdin, uning serpushtlik ramzi sifatida e'zozlanganligini anglashimiz mumkin. Suv bilan bog'liq tarbiya. Bolalarga avvallari doimiy ravishda suvning kundalik hayotimizdagi bebaho o'rni va uning tashnalikni qondirish vositasi, hayotning asl manbai sifatida beqiyos ne'mat ekanligi ta'kidlanib, uning har bir tomchisi nihoyatda qadrlanishi zarurligi betinim o'rgatib borilgan. Ayniqsa, kundalik turmush tarzida suvni behad e'zozlash, behuda sarflanishiga yo'l qo'ymaslik kerakligi uqtirib kelingan. Shuningdek, bolalarga oqar va oqmas suvga tuflash, unga yozilish, chiqindi tashlab ifloslantirish katta gunoh bo'ladi deb nasihat qilingan.

An'anaga ko'ra qizlar o'n yoshgacha bo'lgan davridan boshlab oiladagi oshxona ishlariga o'z onasi va katta yoshdagi opalari tomonidan o'rgatilgan. Ular ovqat tayyorlashni o'rganishdan oldin oshxona idishlarini yuvib tozalashga undalgan. Oldinlari vodoprovodlar bo'lmaganligi bois uyning oshxonasida maxsus belgilangan yerdan suv olinib, idish yuvilgan. Idishlar yuvib bo'linganidan so'ng azaliy odatga binoan guruch, sut va qatiq solingan idishlar yuvilgan suvlar mevali daraxtlar tagiga to'kilgan. Shuningdek, qizlar yoshligidan boshlab mehmon kelsa, tabassum bilan kutib olishga, qo'liga darrov suv quyishga, epchillik bilan harakat qilishga, epli bo'lishga o'rgatiladi. Taniqli etnograf olim, A.Ashirovning qayd etishicha, Farg'ona vodiysida buvilar, onalar erta tongda turishda fazilat juda ko'p ekanligi bois saharda turib, darvozalarni ochish zarurligini uqtirishadi. Shu bois hozirgi kunda erta tongdan xonadon darvozalarini ochish, ko'chalarga suv sepib supurish odatiga qat'iy amal qilinadi[13, 184].

O'z navbatida, o'zbek oilasida o'g'il bolalarga ham yoshligidanoq ro'zg'orni yuritish va jismoniy mehnat bilan bog'liq yumushlar qatori mehmondorchilik an'anasi o'rgatib borilgan. Bolalar kattalarning hurmati uchun o'rnidan turib salom berish, ularning qo'liga zudlik bilan suv quyish, tayyorlangan taomni oldin yoshi ulug' insonlarga uzatish, umuman, kattalarga ehtirom ruhida tarbiyalangan. Ayniqsa, ekologik madaniyatga xos udumlar, ya'ni mehmon kelgan paytda dasturxon atrofida o'tirganlar qo'l yuvishi uchun suv quyish odati o'ziga xos sanaladi. Aksariyat hollarda bu yumush yosh bolalarga buyuriladi. Qo'lini yuvayotgan kishilar ham suv quyayotgan bolaga "Umring suvday uzun bo'lsin", "Baxtli bo'l", "Umringga baraka bersin", "Niyatlaring amalga oshsin", "Alloh umringni suvdek serob va uzun qilsin" degan tilaklarni bildiradilar. Taomdan avvalgi suv iliq holatda qo'lga quyilsa, ziyofatdan keyingisi qo'ldagi moy yuqini ketkizar darajada issiqroq tayyorlangan bo'ladi. Suv mehmon qo'liga uzib-uzib quyiladi. Birinchi navbatda, o'ng tomondan o'tirgan mehmonlardan boshlab suv quyiladi, taomdan keyin esa suv quyish chap tomondan boshlanadi.

Hozirgi kunda ham vodiya ko'p hollarda mehmonlar kelgan paytda uyning hovlisida ular qo'liga ehtirom bilan suv quyib, so'ngra uy ichiga, mehmonxona sari

taklif etiladi. An'anaga ko'ra mehmon qo'liga suv quyayotgan kishi uzibuzib uch marta quyishi, shundan keyingina unga sochiq tutishi kerak bo'lgan. O'z navbatida, qo'lni yuvgan kishi qo'lining barmoqlarini silkitmagan holda sochiq bilan artishi joiz. Qo'l yuvilganda uni silkitib chor-atrofga suv sachratilsa, u kishi va oilasidan qut-baraka ketadi deyiladi. Agarda qo'lni silkitib, qolgan suv yerga tushiriladigan bo'lsa, shaytonlar ko'payadi deb hisoblanadi.

Suv bilan bog'liq an'analar orasida xalqona qarashlar juda ko'p. Masalan, Jizzax viloyati Zomin tumanida qiz xonodoniga sovchi bo'lib kelganlar niyati uy egalari ga ma'qul kelsa, rozilik belgisi sifatida ular ketayotgan mahalda qo'llariga iliq suv quyilgan, aksi bo'lsa sovuq suv quyilishi, olis yurtlarga biror yumush bilan otlangan kishining safari bexatar bo'lsin deb uning ortidan suv sepilishi kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

XULOSA

Yuqoridagi ma'lumotlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, ayrim tabiat unsurlari singari suv ham behad muqaddas hisoblangan. Yer, suv bir vaqtning o'zida insonlar chanqog'ini qondiruvchi hamda ularni poklovchi, dardiga darmon bo'luvchi vosita vazifasini bajargan. Yer-suv bilan bog'liq turli mifologik qarashlar ham qadim ajdodlardan keyingi avlodlarga an'ana tarzida o'tib kelgan. Shuningdek, yer-suv poklanish manbai bo'lgani sababli insoniyat qadimdan tozalikka katta e'tibor berib keladi. Lekin aynan suvni asrab-avaylash va uning ilohiy ahamiyati bilan bog'liq diniy-mifologik qarashlar deyarli unutilib ketdi. Shu sababli hozirda yer-suv bilan bevosita bog'liq bilim, qarashlarni mujassamlashtirgan mintaqaviy madaniyatlarni turli ilm-fanlar (tarix, madaniyatshunoslik, etnologiya, ekologiya, folklorshunoslik) nuqtai nazaridan ilmiy asosda o'rganish, ijobiylarini aholi, xususan, yoshlar ongi va qalbiga singdirish ekologik madaniyatning shakllanishi va uning yanada mustahkamlanishiga asos bo'ladi.

IQTIBOSLAR / ЧОСКИ / REFERENCES

1. Azzamov X. Ekologik muammolar insoniyatni xavotirga solmoqda // Hurriyat (2013).
2. Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorlik. Tanlangan asarlar. I-jild, - Toshkent. “Fan” nashriyoti, 1968. 257 – b.; Qoraboyev U.O‘zbekiston bayramlari. – Toshkent.: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1991. – 190 b.
3. Avesto. -Toshkent.: “Sharq” nashriyoti, 2001. 87-b.
4. Hasanov S. Xorazm ma’rifati olam ko‘zgusi. - Toshkent.: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1996, 45-b.
5. Sobirov U. Ekologik madaniyat shakllanishi tarixidan. // «Ekologiya xabarnomasi». №3, 2005, 17-b.
6. Qur’oni Karim. Ma’nolarining tarjiması. -Toshkent.: 2001, 359-b.
7. Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari.- Toshkent., 2007.
8. Sarimsoqov A. O‘zbeklarning taqvimiy marosimlari (Farg‘ona vodiysi materiallari asosida) T., “Yangi nashr”, 2014.
9. Штрэнберг Л.Я. Первобытная религия в свете этнографии. Л., 1936. С. 262.
10. Payziyeva M. O‘zbeklarning an’anaviy va zamonaviy motam marosimlari (Toshkent shahri misolida). – Toshkent, “Yangi nashr”, 2014. 66 - bet.
11. Басилов В.Н. Следы культа умирающего и воскресающего божества в христианской и мусульманской агиологии // Фольклор и историческая география. М., 1983. С. 135.
12. Хисматулин А.А., Крюкова В.Ю. Смерть и похоронный обряд в исламе и зороастризме. СПб.: Центр Петербургского востоковедения, 1997. С. 184.
13. Ashirov A. O‘zbek madaniyatida suv. – Toshkent, Akademnashr. 2020. - 240 b.